

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK- TEXNOLOGIK USULLARIDAN FOYDALANISHNING IJOBIY TOMONLARI

Nuritdinova Sh, FDU, o‘qituvchi.

Annotatsiya: Maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlarning bir qator turlari ahamiyati, texnologiyalarining darsdagi ijobiy tomonlari hamda ulardan foydalanish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol usul, erkin fikrlash, modulli darslar, muammoli (aqliy hujumli) darslar, frontal ish turi, sinov, didaktika, individual ish turi.

Аннотация: В статье показано значение ряда современных педагогических методов в обучении иностранным языкам, положительные стороны их технологий на уроке, а также способы их использования.

Ключевые слова: интерактивный метод, свободное мышление, модульные уроки, проблемные (мозговые штурмы) уроки, фронтальный тип работы, тест, дидактика, индивидуальный тип работы.

Abstract: The article shows the importance of a number of modern pedagogical methods in teaching foreign languages, the positive aspects of their technologies in the lesson, and the methods of their use.

Key words: interactive method, free thinking, modular lesson, problem-based (brainstorming) lesson, frontal type of work, test, didactics, individual type of work.

Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlar to‘g‘risida doimiy g‘amxo‘rlik davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biridir.

Hozirgi paytda jahon miqyosida sodir bo‘layotgan integrallashuv jarayonida turli soxa fanlarining jadallik bilan rivojlanishi, yangi kashfiyotlar natijasida bilimlar ummonini yanada chuqurlashib va kengayib borishi kuzatilmoqda. Til o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan zamon talabi keng jamoatchilikning ham xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib yubordi. Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida xorijiy til o‘qitilishining yangi

zamonaviy texnologiyalarini izlab topish, xorijiy til o‘qitishning jadallahshgan, interfaol usullaridan foydalanish zaruratin keltirib chiqaradi.

Bilim olishda esa mustaqilllik, muammoli topshiriqlarni yechishdagi izlanuvchanlik va ijodkorlikni ko‘rish mumkin. Shuningdek o‘rganilgan o‘quv materialini amaliyotda qo‘llashga nisbatan qiziqishning kuchliligi, rolli didaktik o‘yinlardan, muammoli vaziyatlardan keng foydalanish ham yangi o‘qitish texnologiyalariga xosdir.

Ta’lim jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara darslari va erkin fikrlash darslaridan foydalilanadi. Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o‘qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi.

1.Ma’ruza (kirish ma’ruzasi, mavzuli ma’ruza, umumlashtiruvchi ma’ruza) darslari.

2.Seminar (bilimlarni mustaxkamlovchi , yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo‘ljallangan) darslar.

3.modulli darslar.

4.Muammoli (aqliy xujum) darslari

5.Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslari.

a)Didaktik o‘yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o‘yin mashqlari) darslari.

b)Sinov (didaktik, kartochkalar, test topshiriqlari, o‘zaro nazorat varag‘i yordamida EXM nazorat dasturlari vositasida o‘tkaziladigan darslar.¹

O‘qituvchi o‘rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta’lim mazmunidan kelib chiqqan xolda yuqori samara beradigan dars turini belgilaydi va o‘quv yili boshidan taqvim rejada rejalashtiradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish talabalarning bilim va taxsil olishga bo‘lgan qiziqishlarini

¹ Алимов Ш.С. Интенсив методлар, интерфаол методлар, ноанъанавий дарс ўтиш усуллари Андижон 2009.

orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.

Chet tilida olib boriladigan zamonaviy darslar murakkab texnologik jarayon hisoblanib unda texnik vositalar, kompyuter texnologiyasi, talabalardagi individuallikni hisobga olishni taqazo etadi. Yangi o‘qitish texnologiyalari nuqtai – nazaridan qaralganda o‘quv jarayonini loyixalashtirishda ikki muxim omilga e’tibor qaratiladi:

- 1.Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro faoliyati;
- 2.Ta’lim berish jarayonida o‘quv materialini ko‘rgazmalilik asosida ma’lum ketma – ketlikda taqdim qilinishi.

Ta’lim beruvchi shaxs – o‘qituvchining ta’lim oluvchilar – talabalar bilan dars jarayonidagi hamkorligini tashkil qilishda quyidagi ish turlari qo‘llaniladi:

1.Frontal ish turi. Bunda o‘qituvchi auditoriyadagi barcha talabalarga yuzlangan xolda savollar va topshiriqlar murojaat qilishi mumkin..

Frontal ish turi o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Ularga ta’lim berishning yalpi xarakterga ega ekanligi, shuning uchun ham auditoriyadagi talabalar butun bir jamoa sifatida ishlashi, tejamkorligi, chunki, o‘qituvchi bir xil topshiriq bilan butun auditoriya jamoasiga murojat qiladi, talabalarning individual qobiliyatları, darsga tayyorgarlik darajasining turlichaligi xisobga olinmaydi.

2.Gurux bo‘lib ishslash turi.

Ushbu turdagagi ish faoliyatida talabalar juft-juft, gurux ichida va gurux-gurux bo‘lib faoliyat ko‘rsatishadi, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishadi. Ushbu ish turi talabalarda jamoaviy bo‘lib ishslash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ulardagagi tashabbuskorlik va ijodkorlik uchun ya’ni talabalardagi ichki rezerv imkoniyatlarini ishlatischga o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan motivatsiyani hosil qilishga imkon va sharoit yaratadi.

Nazorat qilish va o‘qitish natijalarini tekshirish uchun o‘qituvchidan ko‘p vaqt talab etilmaydi. Talabalar fikrlari topshiriqni bajarish jarayonida baxs, munozara, tortishuv orqali muhokama qilinadi, shovqin bo‘lishi va o‘quv jarayoni nazoratdan chiqib ketishi mumkin.

3.Individual ish turi.

Individual ish turi dars jarayonida va darsdan tashqari jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ish turlaridan xisoblanadi .Bunday usul talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari, mustaqillik darajasining turliligi, o'z kuchiga ishonmaslik, xato qilib qo'yishdan qo'rishi kabi bir qator psixologik omillar bilan xarakterlanadi.

Bu ish turi talabalarga yakka tartibda topshiriq berish bilan bog'liqdir. Individual ish turida o'qituvchidan talabaning qobiliyati, nimalarga qiziqishini aniqlash va unda o'qib – o'rganishga to'sqinlik qiluvchi psixologik xolatlar – to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan individual vazifani ishlab chiqish va uni amalga oshirishda talabaga yordam berishi, ruxlantirishi talab etiladi.

Yuqorida tilga olib o'tilgan pedagogik texnologiyalar va usullar ta'lim sifatini oshirish,ta'lim sifatini optimallashtirish,samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reiner Wieke."Aktiv und kreativ lernen" 2004. Max Hueber Verlag
2. Алимов Ш.С. Интенсив методлар, интерфаол методлар, ноанъанавий дарс ўтиш усуллари Андижон 2009.
3. Nuritdinova, S. X., & Ibragimov, V. Y. (2022). Problems of Grammatical Interference in Teaching German Language to Uzbek Students. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 163-168.
4. Xamidovna, N. S. (2021). On The Influence of The Phonetic Laws of The Uzbek Language in The Teaching of German. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 46-48.
5. Xamidovna, N. S. (2021). On The Influence of The Phonetic Laws of The Uzbek Language in The Teaching of German. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 46-48.
6. Nuritdinova, S., & Kochkarova, Y. (2022). Difficulties In Teaching Foreign Languages. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 4, 127-128.
7. Nuritdinova, S. (2020). O 'zbek bolalar adabiyotida badiiy tafakkur yangilanishining tadriji. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.

- uz), 1(1).*
8. Saidaliyev S. Chet tili o‘qitish metodikasidan ocherklar., Namangan., Khamidovna, N. S. (2021). On The Use of Infinitive Groups in German and Uzbek Languages. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 1(1), 202-204.NamDU, 2004. – 238 b.